

## **Xitoy Xalq Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida stajirovka o'tash bo'yicha tanlov shartlari**

1.1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 24-dekabrda 2/24-4/1-5266-sonli xatida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti bakalavr yo'nalishining 2 va 3-bosqich hamda magistratura mutaxassisligining 1-bosqich talabarlari va TDSHU akademik litseyi yosh xitoy tili o'qituvchilari orasidan 2022/2023 o'quv yilida Xitoy Xalq Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida bir yillik stajirovka o'tashga tavsiya etiladigan o'qishi yaxshi va a'lo ko'rsatkichlarga ega bo'lgan, yuksak ma'naviyatli, ilmiy va ijodiy yo'nalishlarda muayyan yutuqlarga erishgan, universitet va litsey hayotida faol ishtirok etadigan nomzodlarni aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan mezonlar asosida quyidagi tartibda tanlovlar tashkil etilsin:

- Xitoy tili bo'yicha tanlov joriy yilning **25-yanvar kuni soat 10:00 da;**

- Ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha tanlov joriy yilning **26-yanvar kuni soat 10:00 da universitetning Shaxrisabz ko'chasi, 25-uy, binosining 3-4 qavat auditoriyalarida o'tkazilsin.**

1.2. Tanlovda ishtirok etishga **kunduzgi va kechki ta'lim** shaklida tahsil oladigan "Filologiya va tillarni o'qitish (xitoy tili)", "Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (Xitoy Xalq Respublikasi)", "Tarix (Xitoy Xalq Respublikasi)", "Jahon siyosati (Xitoy Xalq Respublikasi)", "Siyosatshunoslik (Xitoy Xalq Respublikasi)", "Sharq falsafasi va madaniyati" va "Tarix (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha)", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti (xitoy tili)" va "Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari 2-3 bosqich, xitoyshunoslik magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 1-bosqich talabarlari hamda TDSHU akademik litseyi xitoy tili o'qituvchilari tavsiya etilsin.

1.3. Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi toifadan talabalar **tavsiya etilmasin:**

- oxirgi 2-3 yil davomida Xitoy Xalq Respublikasi yoki boshqa xorijiy davlatlarning grant yoki stipendiyalariga sazovor bo'lganlar;

- 2021/2022 o'quv yili davomida xitoy tili fanini a'lo va yaxshi baholarga o'zlashtirmayotganlar;

- darslarga qatnashish davomati past, o'quv yilida hayfsan olgan, universitet ichki tartib-qoidalarini buzganligi rasmiylashtirilgan talabalar.

1.4. Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklardan hamda talabalar sonidan kelib chiqib, **20 ta grant o'rinlari bo'yicha ajratilgan kvotalar quyidagicha taqsimlansin:**

"Filologiya va tillarni o'qitish (xitoy tili)" yo'nalishi uchun – 7+1 ta (1 ta grant aviachipta xarajatlari nomzod tomonidan qoplanish sharti bilan);

“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (Xitoy Xalq Respublikasi)”, “Tarix (Xitoy Xalq Respublikasi)” va “Jahon siyosati (Xitoy Xalq Respublikasi)”, “Siyosatshunoslik (Xitoy Xalq Respublikasi)” yo‘nalishlari uchun – 5 ta;

“Tarjima nazariyasi va amaliyoti (xitoy tili)” va “Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati” yo‘nalishlari uchun – 2 ta;

“Sharq falsafasi va madaniyati” va “Tarix (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo‘yicha)” yo‘nalishlari uchun – 2 ta;

Magistratura xitoyshunoslik mutaxassisliklari uchun – 2 ta;

TDSHU akademik litseyi xitoy tili o‘qituvchilari uchun – 1 ta. TDSHU akademik litseyidan nomzod tavsiya etilmagan holda mazkur o‘rin tanlovda yuqori ball to‘plagan nomzodga berilishi inobatga olinsin.

1.5. Tanlovda ishtirok etish uchun tavsiya etilayotgan o‘qishi, xulq-atvori, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va bilim saviyasi yuqori bo‘lgan talabalar nomzodi kafedra va fakultet majlisida ko‘rib chiqilsin hamda ularning tasdiqlangan ro‘yxati (F.I.SH, yo‘nalishi, kursi/guruhi, mobil telefon raqami to‘g‘risidagi ma‘lumotlar) 2022-yil 17-yanvariga qadar Xalqaro hamkorlik bo‘limiga taqdim etilsin.

1.6. Grant sovrindorlari zarur bo‘lgan holda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 3 yil ishlab berishi inobatga olinib, stajirovkadan oldin grant sovrindorlari va TDSHU o‘rtasida shartnoma imzolanishi belgilansin.

**2022-2023 o‘quv yilida Xitoy Xalq Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida  
1 yil davomida stajirovka o‘tash uchun o‘tkaziladigan tanlovning baholash  
MEZONI**

Imtihon ikki bosqichda o‘tkazilishi belgilangan:

**I bosqich**

**Xitoy tilidan test.** Jami 50 ta test. Har bir to‘g‘ri javob 1 balldan baholanadi, jami 50 ball, belgilangan vaqt 50 daqiqa.

**Belgilangan mavzuda insho.** Eng yuqori ball 10 ball, ajratilgan vaqt 40 daqiqa.

Insho quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Mavzu mazmuni to‘liq yoritilgan, belgilar soni 250 dan kam bo‘lmagan, 4 tagacha grammatik, stilistik va orfografik xatolarga yo‘l qo‘yilgan holda 8-10 ball;
2. Mavzu mazmuni yaxshi yoritilgan, belgilar soni 220 dan kam bo‘lmagan, 6 tagacha grammatik, stilistik va orfografik xatolarga yo‘l qo‘yilgan holda 4-7 ball;
3. Mavzu mazmuni o‘rtacha yoritilgan, belgilar soni 200 dan kam bo‘lmagan, 8 tagacha grammatik, stilistik va orfografik xatolarga yo‘l qo‘yilgan holda 2-6 ball;
4. Mavzu mazmuni qisman yoritilgan, belgilar soni 180 dan kam bo‘lmagan, 10 tagacha grammatik, stilistik va orfografik xatolarga yo‘l qo‘yilgan holda 1-5 ball;
5. Mavzu qoniqarsiz yoritilgan, belgilar soni 130 dan kam bo‘lmagan, 15 dan ortiq grammatik, stilistik va orfografik xatolarga yo‘l qo‘yilgan holda 1-4 ball;
6. Mavzu umuman yoritilmagan, belgilar soni 100 dan kam bo‘lgan, 20 dan ortiq grammatik, stilistik va orfografik xatolarga yo‘l qo‘yilgan holda 0 ball.

## **II bosqich**

### **Xitoy tilidan og‘zaki imtihon. Jami: 20 ball**

Og‘zaki imtihon quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Mavzu haqida ravon so‘zlab berish, berilgan savollarni aniq tushunish va tutilmasdan javob berish 16-20 ball;
2. Berilgan mavzuni qisqa pauzalar bilan so‘zlab berish, berilgan savollarni aniq tushunish va biroz tutilishlar bilan javob berish 10-15 ball;
3. Berilgan mavzuni uzun pauzalar bilan so‘zlab berish, berilgan savollarni qisman tushunish va tutilishlar bilan javob berish 5-9 ball;
4. Berilgan mavzuni qisqacha so‘zlab berish, berilgan savollarni takrorlardan keyin qisman tushunish va tutilishlar bilan javob berish 1-4 ball;
5. Berilgan mavzuni so‘zlab berolmaslik, berilgan savollarga umuman tushunmaslik va javob berolmaslik 0 ball.

**Eslatma: Test, insho va og‘zaki imtihon natijalarida 56% (44 ball) dan ortiq ball to‘plagan ishtirokchilar 3-bosqichda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi.**

## **III bosqich**

### **Ma’naviyat va ma’rifat bo‘yicha og‘zaki imtihon. Jami: 20 ball.**

Ma’naviyat va ma’rifat bo‘yicha og‘zaki imtihonda talabalar bilan mamlakatimiz tarixi, madaniyati, adabiyoti, mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlar siyosati, O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va Tarqqiyot strategiyasi mazmuni va mohiyati, O‘zbekiston va Xitoy hamkorlik aloqalari, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, shu jumladan, xitoyshunoslik sohasi rivojlanishi to‘g‘risida suhbat o‘tkaziladi.

### **Og‘zaki imtihon quyidagi mezonlar asosida baholanadi:**

1. Berilgan savol yuzasidan talaba to‘liq ma’lumotga ega bo‘lib, mavzu bilan bog‘liq dalillarni keltira olsa hamda o‘z fuqarolik pozitsiyasidan turib javob bera olsa - 16-20 ball.
2. Berilgan savol yuzasidan qisman ma’lumotga ega bo‘lib, mavzu bilan bog‘liq dalillarni bir qadar chalkashtirsa - 10-15 ball.
3. Berilgan savol yuzasidan ma’lumotlarni yetkazishda qiynalsa, mavzu bilan bog‘liq dalillarni yetkazishda yanglishsa - 1-9 ball.
4. Berilgan savollar bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lmasa - 0 ball.